

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA” KAFEDRASI

“5130200 – Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

PRIMOV BOTIR TOSHEMIROVICH ning

« Grafika va matn bilan ishlashda JAVA tilining AWT

kutubxonasidan foydalanish»

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'q. F.Qlicheva

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fizika-matematika fakulteti dekani

_____ prof. A.Tashatov

“ ___ ” _____ 2018-y.

QARSHI – 2018-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. JAVA DASTURLASH TILI VA UNDA OYNALAR BILAN ISHLASH	6
1.1. Java dasturlash haqida boshlang'ich tushunchalar	6
1.2. Applet oynasini yaratish	10
1.3. Appletda matnlarni tahrirlash	12
1.4. <i>Swing</i> oynasini hosil qilish	18
1.5. Tugmalar qo'shish	20
II BOB. JAVADA GRAFIKA	22
2.1. Grafikani qo'llab quvvatlash	22
2.2. Grafik primitivlarni hosil qilish	23
2.3. Grafiklarning o'lchamlarini o'zgartirish	26
2.4. Ranglar bilan ishlash.....	27
III BOB. Mukammal dasturlar yaratishda Java tilining grafik va matnlar bilan ishlash imkoniyatlaridan foydalanish.....	33
3.1. Shakl harakatini boshqarishda Java tilining grafik imkoniyatlaridan foydalanish.....	33
3.2. Javada animatsion dasturlar yaratish	36
3.3. Sodda matn muharriri dasturini yaratish	43
3.4. Sodda ko'rinishdagi Paint dasturini yaratish	51
XULOSA.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET RESURSLARI	57

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlarini dadil qo'yayotgan hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Bu esa mamlakatimiz kelajagi uchun qurilgan poydevor hisoblanadi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (yoki o'quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Axborotlashgan jamiyatda yashar ekanmiz, dasturlash tillariga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga o'sib bormoqda. Java dasturlash tili bugungi kunga kelib ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda, shuningdek bu til web ilovalar yaratishga qulay bo'lgan til hisoblanadi. Chunki u bizga sinf yaratib beradi, bu sinfni applet orqali bema'lol web ilovalarda ishlatish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi: Zamonaviy dasturlash tillarining asosini tashkil etuvchi obyektga yo'naltirilgan dasturlash (OYD)- hozirgi kundagi dasturlashga bo'lgan yangicha yondashuvdir. Hisoblash texnikasining rivojlanishi va yechilayotgan masalalarni tobora murakkablashuvi dasturlashning turli modellarini (paradigmalarini) yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Birinchi kompilyatorlar (masalan, FORTRAN tili) dasturlashning funksiyalardan foydalanishga asoslangan protsedura modelini qo'llab quvvatlagan. Bu model yordamida dastur tuzuvchi bir necha ming qatorli dasturlarni yozishi mumkin edi. Rivojlanishning keyingi bosqichida dasturlarning strukturali modeli paydo bo'ldi va ular ALGOL, Pascal va C tillar kompilyatorlarida o'z aksini topdi. Strukturali dasturlashning mohiyati –

dasturni o'zaro bog'langan protseduralar (blokklar) va ular qayta ishlaydigan berilganlarning majmuasi deb qarashidir. Ushbu model dastur blokklarini keng qo'llashga, GOTO operatoridan imkon qadar kam foydalanishga tayangan va unda dastur tuzuvchi o'n ming qatordan ortiq buyruqlardan iborat dasturni yarata oladi. Yaratilgan dasturni protsedurali modelga nisbatan sozlash va nazorat qilish oson kechadi. Bularga qaramasdan yangi murakkab masalalarning paydo bo'lishi dasturlashdagi yangi yondashuvning paydo bo'lishiga olib keldi. Ya'ni murakkab masalalarni yechish uchun dasturlashning yangi uslubiga zarurat paydo bo'lib, u OYD modelida amalga oshirildi. Ushbu ishda esa OYD ning imkoniyatlaridan foydalanib grafika va matn bilan ishlash jarayonini qarab chiqamiz. Bugungi kunga kelib grafika va matn bilan ishlovchi ko'plab dasturiy vositalar mavjud bo'lsada, kompyuter bilan bog'liqlikda ishlovchi qurilmalarning mukammallashuvi grafika va matn bilan ishlovchi yangi dasturiy vositalarga ehtiyoj sezmoqda. Bunga misol qilib tibbiyot, kuzatuv obyektlari kabilarni aytish mumkin. Shu boisdan ham ishda qo'yilgan masala ahamiyatlidir.

Java tilining grafika va matn bilan ishlash imkoniyatlari ko'plab jahon olimlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, Gerbert Shildt, Mayk Mak Grat, Key Xorstmann, Gary Kornell, N.Vyazovik, V.Paramonov, R.Setterlar tomonidan java tilining imkoniyatlari keng o'rganilgan.

Ishning maqsadi: Java dasturlash tilining grafika va matn bilan ishlash imkoniyatlarini o'rganish hamda ularni amaliy dasturlar qurishga tatbiq etish.

Ishda qo'yilgan vazifalar:

- Tilning grafika va matn bilan ishlovchi komponentalarini o'rganish;
- Bitli tasvirlar va multiplikatsiyalar bilan ishlashni batafsil o'rganish;
- amaliy dasturlarda grafika, matn, animatsiyalarni boshqarish jarayonlarini tashkil etish;

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari :

Mukammal dasturiy vositalar qurishda Java tilining grafik imkoniyatlaridan foydalanish.

Tadqiqotning predmeti va obykti: Uzluksiv ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga tegishli bo'lgan multimediali elektron o'quv adabiyotlar, matn, animatsiya, ovoz va video fayllar bilan ishlovchi mukammal dasturlar.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati:

- mavzu bo'yicha ilmiy-uslubiy, nazariy adabiyotlarni o'rganish;
- ta'lim to'g'risida davlat hujjatlari, DTS talablari, ilg'or mutaxassis olimlarning fikrlarini o'rganish;
- mavzuga aloqador mavjud internet resurslaridan foydalanish;
- Java tilining grafika va matn bilan ishlash imkoniyatlarini amaliy dasturlar qurishga tatbiq etish.

Ishning hajmi va strukturasi: Bitiruv malakaviy ishi, kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda internet resurslari ro'yxatidan iborat. Ishning 1-bobida applet oynasi, applet oynasida matnlarni tahrirlash, swing oynasi bilan ishlash va unda tugmalar joylashtirish haqida umumiy tushunchalar keltiriladi. 2-bobda Java tilining grafik imkoniyatlari amaliy masalalar yordamida tushuntiriladi. 3-bobda esa grafika, animatsiya va matn bilan ishlovchi mukammal dasturlarning matni va ulardan foydalanib olingan natijalardan namunalar keltiriladi.

I BOB. JAVA DASTURLASH TILI VA UNDA OYNALAR BILAN ISHLASH

Java dasturlash tili bugungi kunga kelib ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda, shuningdek bu til web ilovalar yaratishga qulay bo‘lgan til hisoblanadi. Chunki u bizga sinf yaratib beradi, bu sinfni applet orqali bemaol web ilovalarda ishlatish mumkin.

Javaning AWT kutubxonasi tarkibida grafikani qo‘llab quvvatlovchi bir qator sinflar mavjud. Bunday sinflar applet oynasida yoki *Swing* paketi yordamida hosil qilingan oynalarda turli grafiklar chizish imkonini beradi. Bunday oynalar applet oynasi yoki dastur ilovasi oynasi ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Har bir oynaning koordinatasi quyidagicha bo‘ladi: Oynaning yuqori chap burchagida (0;0) nuqta joylashadi. *X* o‘qi shu nuqtadan boshlab oynaning yuqori o‘ng burchagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. *Y* o‘qi esa oynaning quyi chap burchagi tomon yo‘naltiriladi. Oynaning o‘lchami piksellarda aniqlanadi.

1.1. Java dasturlash haqida boshlang‘ich tushunchalar

Java dasturlash tili – eng yaxshi dasturlash tillaridan biri bo‘lib unda korporativ darajadagi mahsulotlarni(dasturlarni) yaratish mumkin. Java dasturlash tili Sun Microsystems kompaniyasi xodimlari James Gosling, Patick Naughton, Christ Warth, Ed Frank va Mike Sheridanlar tomonidan 1991 yilda yaratilgan. Uning birinchi ishga yaroqli versiyasini tayyorlash uchun 18 oy vaqt sarflangan. Bu dasturlash tilining birinchi nomi oldin ta’kidlab o‘tganimizdek, “Oak” deb nomlangan, so‘ngra, 1995 yilda “Java” nomiga o‘zgartirilgan.

Sun firmasining ma’lumotlariga qaraganda 3 mlrd. atrofidagi qurilmada javadan foydalaniladi. Ulardan ba’zilarini misol sifatida sanash mumkin:

- Shaxsiy kompyuter dasturlari (Desktop Applications) – acrobat reader, media-player, antiviruslar va h.k.;
- Web-dasturlar;
- Korxonatashkilotlar dasturlari (Enterprise Applications);

- bank yoki ishlab chiqarishga oid dasturlar;
- Mobil dasturlar;
- Smart kartalar;
- Robotlar;
- O'yinlar.

Asosiy konsepsiyalari:

Java quyidagi 5 maqsad uchun qurilgan, u shunday til bo'lishi kerakki:

1. Oddiy, obyektga mo'ljallangan, taqsimlangan va o'rganishga oson bo'lsin.
2. Mustahkam va xavsiz bo'lsin.
3. Qaysidir qurilma platformasidan yoki uning arxitekturasidan mustaqil bo'lsin (ya'ni qaysidir platformaga tobe bo'lmasin).
4. Juda samarali bo'lsin.
5. Dasturlash tili uchun tarjimon(interpreter) yozish mumkin bo'lsin. Shuningdek dasturlash tili parallel ishlashni va dinamik tiplashda foydalanishni ta'minlay olsin.



1.1-rasm. Java ko'rinishi

Java 1990-1991 yillarda ishlab chiqarila boshlangan bo'lsa ham, uning birinchi versiyasi (Java 1.0) 1996 yil ommaga taqdim etilgan. Undan so'ng keyingi versiyalar sekin-astalik bilan chiqa boshladi:

1. JDK Alpha va Beta (1995)
2. JDK 1.0 (23 Yan, 1996)
3. JDK 1.1 (19t Feb, 1997)

4. J2SE 1.2 (8 Dek, 1998)
5. J2SE 1.3 (8 May, 2000)
6. J2SE 1.4 (6 Feb, 2002)
7. J2SE 5.0 (30 Sen, 2004)
8. Java SE 6 (11 Dek, 2006)
9. Java SE 7 (28 Iyul, 2011)
10. Java SE 8 (18 Matr, 2014)


Java Obyektga Yo'naltirilgan Dasturlash (OOP-object oriented programming, OOP) tili va u C++ ga ancha o'xshash. Eng ko'p yo'l qo'yildigan xatolarga sabab bo'luvchi qismalari olib tashlanib, Java dasturlash tili ancha soddalashtirildi. Java texnologiyasi o'ta sodda, xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlab bera oladigan, kuchli, to'la obyektga yo'naltirilgan dasturlash tili bo'lib, muhit (platforma)ga bo'liq bo'lmagan holda ishlaydi. U bilan xatto eng kichik qurilmalarga ham dasturlar yozish mumkin. Java texnologiyasi to'laligicha Javaning sintaksisi C++ ga asoslangan. Shuning uchun C++ tilini biladiganlar Javani oson o'rganishadi. Lekin undagi ko'pchilik xususiyatlar olib tashlangan. Masalan: Pointer(ko'rsatkich)lar bilan to'g'ridan to'g'ri ishlash, ya'ni Javada alohida ko'rsatkich tushunchasi yo'q. Operatorlarni qayta yuklash ham olib tashlangan. Yana eng muhimi, ishlatilmaydigan xotira (unreferenced objects) avtomatik tozalanadi. Buni Javadagi Garbage Collector (GC – chiqindi yig'ishtirgich) amalga oshiradi. C++ da bu destruktorlar orqali qo'lda (manual – ruchnoy) qilingan. Bundan tashqari Java har bir yangi versiyada bundan qulay imkoniyatlarni qo'shib kelmoqda.

Java texnologiyalari. Java SE (Java Standart Edition) - serverda, shaxsiy kompyuterda desktoplarda ishlovchi dasturlar, appletlar yaratish uchun ishlatiladi. Bu texnologiya yordamida yaratilgan dasturlar deyarli barcha operatsion tizimlarda ishlay oladi. Shu bilan birga JavaSE barcha Java tillarining asosi hisoblanadi.

Java EE (Java Enterprise Edition) - Java texnologiyalari orasida eng ko'p tarqalgan tur hisoblanib, unda serverda ishlovchi dasturlar yaratiladi, masalan ko'p foydalanuvchili web-saytlar yaratishda keng qo'llaniladi, asosan internetda

ishlovchi dasturlar tuzishda foydalaniladi. Java SE ni Java EE dan eng asosiy farqi Java EE o'z tarkibiga Java SE ni olibgina qolmay shu bilan birga ko'pgina boshqa qo'shimcha paketlarni, shuningdek *.jar ni ham o'z ichiga oladi. Bunday paketlar sirasiga Servlet, JavaMail, JSF(Java Server Face) va boshqa ko'pgina internetga asoslangan qo'shimcha paketlar kiradi.

Java ME (Java Micro Edition) - Java SE ning ba'zi qismlarini o'z ichiga oladi. Java ME yordamida kichik qurilmalar uchun dasturlar yozish mumkin, masalan, mobil telefon uchun o'yinlar kabi dasturlar yaratish mumkin. Java kompilyatori aytib o'tganimizdek, biz yozgan kodni bayt-kodga o'giradi. Odatda kompilyatsiyadan o'tgan dastur kodlari *.class kengaytmali faylda saqlanadi. Keyingi bosqichda kompilyatsiyadan o'tgan *.class kengaytmali fayl Java Virtual Machine(JVM) ga yuklanadi va JVM esa bu bayt-kodli faylni interpretatsiya qiladi, ya'ni mashina tiliga o'giradi, shu bilan birga undagi kodni imkoni boricha optimallashtiradi.



1.2-rasm. Java texnologiyasi.

Javada asosan 4 tipdagi dasturlar yoziladi:

1) **Standard applications** – Linux, Mac yoki Windowsga o‘rnatib, kundalik ishlatiladigan dasturlar: mp3 player, ofis, antivirus kabilar. Ular AWT, Swing yoki JavaFX texnologiyalari orqali tuziladi.


2) **Web Applications** – tarmoq orqali ishlovchi ixtiyoriy dasturlar. Web dasturlar ikki qismdan, server tomon hamda klient tomon (brauzer) dan iborat. Javada faqat server tomon uchun dasturlar yoziladi. Bunda servlet, jsp, jsf kabi fundamental texnologiyalardan boshlab *Swing*, *Play* kabi freymworklardan foydalaniladi. Umuman olganda brauzer uchun dasturlar HTML, CSS hamda Java Script kabi tillarda yoziladi.

3) **Enterprise Applications** – bu dasturlar yirik salmoqqa ega bo‘lib, odatda katta jabhalarda ishlatiladi. Banklar, tashkilotlar yoki astronomiya kabi sohalarda keng qo‘llaniladi. Ular yuqori xavfsizlik, yuklamani serverlarga teng taqsimlash (load balancing) yoki klasterlash (clustering – katta tizimdan xuddi yagona obyekt sifatida foydalanish) kabi sifatlarni talab qiladi.

4) **Mobile Applications** – Javada mobil qurilmalarga mos dasturlarni yozish imkoniyatini beradi. U Androiddan boshlab JME gacha qo‘llaniladi.

1.2. Applet oynasini yaratish

Javada applet yaratish uchun operatorlar ketma-ketligini “yig‘ish” lozim va bu chiquvchi fayl hisoblanadi. Chiqish faylini tuzish uchun bizga biror matn muhariri yoki *Eclipse* va *NetBeans* kabi IDE lardan biri kerak bo‘ladi. Applet yaratilgandan so‘ng u yechayotgan masalaga mos nom tanlanishi kerak. Misol uchun: appletingiz reklamani namoyish etish dasturi bo‘lsa, uning nomini “Shov_shuv” yoki “muhim_yangiliklar” deb nomlashingiz mumkin. Bunday nom bilan chiqish faylini ham nomlash mumkin. Misol uchun: Shov_shuv.java yoki muhim_yangiliklar.java. Endi biz “Salom. Bu applet oynasi!” xabarini chiqaradigan appletni tuzamiz. Buning uchun NetBeans dasturini ishga tushiramiz. Hosil bo‘lgan oynaning «Файл» menyusidan «Создать проект» bandini tanlaymiz:




1.3-rasm NetBeans dasturida yangi loyiha ochish

So'ngra loyihaga nom beriladi va bu nom dasturdagi asosiy sinf nomi bilan bir xil bo'ladi. Applet loyiha tarkibidagi fayl hisoblanadi. Bitta loyiha tarkibida bir nechta fayllar bo'lishi mumkin. Shu tariqa applet yaratish uchun loyiha tarkibida fayl yaratamiz, buning uchun esa «Файл → Создать файл →Апплет» buyruqlar ketma-ketligini bajaramiz va appletga Applet12 deb nom beramiz, so'ngra esa hosil bo'lgan oynaga quyidagi dastur kodini kiritamiz:

```
import java.awt.*;
import java.applet.*;

public class Applet12 extends Applet
{
    public void paint(Graphics g)
    {
        g.drawString("Salom. Bu applet oynasi!",
            120, 100);
    }
}
```

Ushbu dastur kodini komplyatsiya qilganimizdan so'ng, applet oynasida quyidagi natija hosil bo'ladi:



1.4- rasm. Oddiy applet ko'rinishi

Appletni o'rganish jarayonida applet nomini ko'rsatgan operatorni ko'rasiz, quyida ko'rsatilgan kabi:

```
public class Applet12 extends Applet
```

Bilasizki, applet bajarilishi kerak bo'lgan masalani yechish uchun kerak bo'lgan operatorlardan foydalaniladi. Bundan tashqari Java obyektlar terminidan tuzilganini ham bilasiz. Siz applet yaratayotganingizda boshida Applet sinfini chaqiruvchi operator yozasiz. Keyin Applet sinfidan foydalanadigan appletni Applet12 ham ko'rsatiladi. Operatorning boshidagi `public` so'zi appletni brouzer ishga tushurishiga ruxsat beradi. Bu so'zni tashlab yozsangiz brouzer appletningi bajarishiga olmaydi. `class` so'zi esa kompilyatorga Applet12 nomni sinf tipidagi obyekt tuzilayotganligini anglatadi. Bu tarzda Applet sinfini kengaytirayotgan bo'lasiz. Java sinfini bu tarzda kattartirishingiz uchun yangi operatorlarni qo'llashingiz kerak.

1.3. Appletda matnlarni tahrirlash

Appletda shrifni boshqarish uchun *Font* obyektini ishlatasiz. *Font* sinfi *java.awt.Font* sinflar kutubxongasini aniqlaydi. Bu kutubxonadan foydalanish uchun, quyidagi import operatorni yozamiz:

```
import java.awt.*;
```

yoki

```
import java.awt.Font;
```

Appletingiz doirasida *Font* obyektini new operatorini ishlatib yaratash. *Font* obyekt yaratayotganingizda, *Font* funksiya-konstruktorlar shrift nomi ko‘rinishi va o‘lchamini uzatasiz:

Font font=new Font("TimesRoman", Font.BOLD, 18);

Bu holda Applet TimesNewRoman qalin, 18 punkt shrift yaratadi. Natijada siz ishlatadigan shriftlar soni oshadi. Ammo bugun brouzerlar HotJava yoki appletviewer shriftlari soni uncha katta emas. Shuning uchun 1.1-jadvalda ko‘rsatilgan shriftlar bilan cheklanash:

Shrift nomi	Misol	Java kodi
Arial	Sample text	font=new Font("Arial",Font.PLAIN, 18)
TimesRoman	Sample text	font=new Font ("TimesRoman", Font. PLAIN, 18)
Courier New	Sample text	font=new Font("Courier New", Font.PLAIN, 18)
Castellar	<i>Sample text</i>	font=new Font("Castellar", Font.PLAIN, 18)

1.1-jadval. Java ning asosiy shriftlari.

Bundan tashqari, *Font* obyeki yordamida shrift tipini tanlaysiz. Misol uchun, *TimesRoman* bundan tashqari u shrift atributlarini qaysini qalin, kursiv yoki ularning kombinatsiyasini ko‘rsatishga imkon beradi. Shrift ko‘rinishini ko‘rsatish uchun *Font.PLAIN*, *Font.BOLD* va *Font.ITALIC* dan atributlardan foydalanish. 1.2-jadvalda ko‘rsatilgan:

Shrift atributi	Misol	Java kodi
Font.PLAIN	Sample text	font=new Font ("Helvetica", Font.PLAIN, 18)


Font.ITALIC	<i>Sample text</i>	font=new Font("Helvetica", Font. ITALIC, 18)
Font.BOLD	Sample text	font=new Font("Helvetica", Font. BOLD, 18)

1.2-jadval. Java shriftlarining atributlari.

Yuqorida ko‘rsatilgani kabi shrift atributini ko‘rsatayotgarigizda siz belgilangan yuqori registirni ishlatishingiz lozim. Bu 1.2-jadvalda ko‘rsatilgan atributlardan tashqari Java appletlaringizga atributlar kombinatsiyasini “+” belgilarini ishlatib ishlatishga imkon beradi:

Font font=new Font ("Helveticaf", Font.BOLD+Font.ITALIC, 18);

Kompilyatsiya qilib, ishga tushirsangiz uning oynasida quyidagicha xabar chiqadi:



1.5-rasm. Appletda shriftlarni tanlash.

Metrik shriftlar haqida tushuncha. Dasturingizda tez-tez shriftlardan foydalaningiz shunday vaziyat bo‘lib qolishi mum- kinki, shrift haqida xabarlar, uning uzunligi, balandligi kerak bo‘lishi mumkin. Misol uchun, satrni applet oynasining o‘rtasiga chiqarish uchun uning enini piksellarda o‘lchamini bilishingiz kerak. Shrift haqida xabar chiqarish uchun, appletingizda quyidagi kabi *FontMetrics* obyektini yaratishingiz lozim:

Font font=new Font("Helvetica", Font.PLAIN, 18) ;

Font Metrics fontMetrics=get FontMetrics(font);

FontMetrics sinf metodni ishlatib, dasturingiz quyidagi kabi shriftlar xarakteristikasini aniqlash mumkin:

```

pixelWidth=fontMetrics.stringWidth("Java Now!");
charecterWidth=fontMetrics.charWidth('A');
Ascent=fontMetrics.getAscent();
Descent=fontMetrics.getDescent();
Loading=fontMetrics.getLoading();
Height=fontMetrics.getHeight();

```

Yuqorida ko'rib o'tilgan sinf obyektlaridan foydalanishni ko'rsatish maqsadida quyidagi dastur matnini keltiramiz:

```

import java.awt.*;
import java.applet.*;
    public class CenterString extends Applet
        {
            public void paint(Graphics g)
                {
int FontSize, y, window_width;
FontMetrics fontMetrics;
Font BigFont=new Font("TimesRoman", FontBOLD, 36);
Font LittleFont=new Font("TimesRoman", Font.PLAIN, 14);
window_width=size().width;
g.setFont(BigFont);
fontMetrics=g.getFontMetrics();
FontSize= fontMetrics.stringWidth("Java Now! Big");
g.drawString("Java Now! Big", (window_width-FontSize)/2,
150);
g.setFont(LittleFont);
fontMetrics=g.getFontMetrics();
FontSize= fontMetrics.stringWidthn("Java Now! Small");
g.drawString("Java Now! Small", (window_width-FontSize)/2,
150);
                }
        }

```

Ko'rib turganingizdek, applet *size().width* ni oynaning enini o'lchamini aniqlash uchun ishlatadi. Bundan keyin, bu funksiya *FontMetrics* sinfnining *StringWidth* funksiyasi pikselda satr uzunligini aniqlash uchun ishlatadi. Oyna va satr enining o'lchamini bilgan holda funksiya satrini oynaning o'rtasiga quyidagi chiqaradi:



1.6-rasm. Xabarni applet oynasining markaziga chiqarish.

Appletingizni qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar shunday hollar bo'lishi mumkinki, sizga shriftning xarakteristikalarini masalan: oddiy, qalin yoki kursivligini aniqlash kerak bo'lishi mumkin. Bundan tashqari xabarni chiqarish uchun funksiya shrift o'zgarishdan oldin, oldingi shriftni saqlashi lozim, u chunki keyinchalik tiklay olsin. Bunday axborotlarni aniqlash uchun Appletingiz Graphics sinf metodlari va Font dan quyidagi kabi ishlatishi lozim:

```
Font CurrentFont=g.getFont();  
String FontName=font.getName();  
int FontSize=font.getSize();  
int FontStyle=font.getStyle();  
boolean IsBold=font.isBold();  
boolean IsItalic=font.isItalic();
```

Matn rangi. Dasturingiz shrift usullari bilan ishlamasdan Graphics sinfining setColor funksiyasidan shrift rangini o'zgartirish uchun foydalanish mumkin. Rangni o'zgartirishning eng oson usuli ranglarning aniqlangan qiymatini ishlatish hisoblanadi:

<i>Color.black</i>	<i>Color.pink</i>	<i>Color.graf</i>	<i>Color.cyan</i>
<i>Color.darkGray</i>	<i>Color.yellow</i>	<i>Color.magenta</i>	<i>Color.gread</i>
<i>Color.lightGray</i>	<i>Color.blue</i>	<i>Color.red</i>	<i>Color.orange</i>

Misol uchun, quyidagi operator joriy rangni qizilga o'zgartiradi:


```
g.getColor(Color.red);
```

FontColor.java Appletini *SetColor* funksiyasidan foydalanib matnni bir necha rangda chiqarishi ko'rsatilgan:

```
import java.awt.*;  
import java.applet.*;  
public class FontColors extends Applet  
{  
    public void paint(Graphics g)  
    {  
        Font font=new Font("TimesRoman", Font.BOLD, 18);  
        g.setFont(font);  
        g.setColor(Color.red);  
        g.drawString("Red Red Red", 5, 30);  
        g.setColor(Color.blue);  
        g.drawString("Blue Blue Blue", 5, 30);  
        g.setColor(Color.green);  
        g.drawString("Green Green Green", 5, 30);  
        g.setColor(Color.yellow);  
        g.drawString("Yellow Yellow Yellow", 5, 30);  
    }  
}
```

Appletni kompilyatsiya qilib, ishga tushirsangiz uning oynasida quyidagi kabi xabar chiqadi:



1.7-rasm. Shriflarni turli ranglar bilan oynaga chiqarish.

1.4. Swing oynasini hosil qilish

Java tilidan foydalanib, foydalanuvchining grafik interfeysini hosil qilish mumkin. Bu ish java tilining *swing* paketidan foydalanib amalga oshiriladi. *javax.swing* paketida joylashgan sinflardan foydalanib, operatsion tizim oynalariga o'xshash bir qator oynalar hosil qilinadi. Bu paketni dasturga chaqirish uchun dastuning boshlang'ich qismida

```
import javax.swing.*;
```

satrini yozish kerak. Foydalanuvchi grafik interfeysini qurish uchun interfeysda foydalaniladigan komponentalarni o'zida saqlovchi sinflar qurish talab etiladi. Bu ishni bajarish *JFrame* sinfining sinf ostisi bo'lgan sinflarni *extends* kalit so'zidan foydalanib hosil qilish kerak. Bu foydalanuvchiga oynani siljitish, o'lchamini o'zgartirish kabi imkoniyatlarni beradi.

Oynalar bilan ishlashda hosil qilinayotgan sinf konstruktorida quyidagi keltirilgan minimal talablar uchun mo'ljallangan operatorlar bo'lishi talab etiladi:

- Oyna sarlavhasi – *JFrame* sinfidan meros bo'yicha olingan *super()* metodining argumenti sifatida yoziladi.
- Oyna o'lchami – bu xususiyat *setsize* metodining argumenti sifatida oynaning eni va balandligiga mos piksellar sonini bildiruvchi natural son ko'rinishidagi qiymatlar orqali beriladi.

- Foydalanuvchi tomonidan oynani yopish harakati – bu `setDefaultCloseOperation()` metodining argumenti sifatida beriladigan o‘zgarmas bilan aniqlanadi.
- Oynani aks ettirish parametri – bu grafik metod hisoblangan `setVisible()` metodining argumentida aniqlanadigan xususiyat.

Bularga qo‘shimcha qilib sinf konstruktoriga oyna komponentasini ham qo‘shish mumkin. Bu ish `JPanel` deb nomlangan konstruktordan foydalanib amalga oshiriladi, boshqa kichik hisoblangan komponentalarni qo‘shish uchun `JFrame` sinfining `add()` metodidan foydalanish kerak.

Quyida keltiriladigan dasturda `JFrame` konteyneri (paneli) `FlowLayout` qolip menejeri bilan `JPanel` konteyneridan foydalanib bazaviy oynani hosil qilish amalga oshirilgan. Bu dastur yordamida tuzilgan oynadan, keyingi oyna bilan bog‘liq ravishda ishlaydigan dasturlarda ham foydalanamiz:

```
import javax.swing.*;

public class Oyna extends JFrame {

JPanel pnl = new JPanel();

public Oyna() {

    super("Swing oynasi!");

    setSize(500, 200);
    setDefaultCloseOperation(EXIT_ON_CLOSE);

add(pnl);


setVisible(true); }

    public static void main(String[] args){

Oyna gui = new Oyna();}

}
```

Dastur natijasi:



1.8.- rasm. Swing paketidan foydalanib yaratilgan oyna ko'rinishi

1.5. Tugmalar qo'shish

Grafik interfeysda tugmalar o'rnatish uchun *JButton* sinfidan foydalaniladi. Bu tugmalarning vazifasi dastur ishlashi davomida o'ziga biriktirilgan operatorlarni ishga tushirishdan iborat.

JButton turdagi obyekt *new* kalit so'zi bilan hosil qilinadi. Uning argumentida keltirilgan satr turidagi qiymat esa tugma ustiga chiqadigan yozuv bo'lib xizmat qiladi.

Tugma ustiga rasmlarni ham joylashtirish mumkin. Buning uchun avval *ImageIcon* turidagi obyektни hosil qilish kerak. Bu obyektning konstruktori argument sifatida rasm faylining nomini qabul qiladi. Odatda foydalanilayotgan rasm dastur matni bilan bitta katalogda bo'lishi kerak. Agar rasm faylida boshqa katalogda joylashgan bo'lsa, shu katalogga yo'l, rasm fayli bilan birga argumentda ko'rsatilishi kerak. Agar tugma ustida yozuv va rasmni birgalikda joylashtirish talab etilsa, *JButton* obyektining argumentida yozuv va *ImageIcon* obyektini ko'rsatiladi.

Quyidagi dasturda oynaga tugmalar joylashtirish amalga oshirilgan:

```
import javax.swing.*;  
public class Tugma extends JFrame {  
    JPanel pnl = new JPanel();  
    ImageIcon rasml = new ImageIcon("rasml.png");
```

```

ImageIcon rasm2 = new ImageIcon("rasm2.png");
JButton btn = new JButton("Oddiy tugma!");
JButton tickBtn = new JButton(rasm1);
JButton crossBtn = new JButton(
    "Keyingi oynaga", rasm2);
public Tugma() {
    super("Tugmalar joylashtirilgan oyna!");
    setSize(500, 200);
    setDefaultCloseOperation(EXIT_ON_CLOSE);
    pnl.add(btn);
    pnl.add(tickBtn);
    pnl.add(crossBtn);
    add(pnl);
    setVisible(true);
}
public static void main(String[] args) {
    Tugma gui = new Tugma();
}
}

```

Dastur natijasi:



1.9.- rasm. Tugmalar joylashtirilgan oyna

Hosil bo'lgan oynada ko'rib turibsizki, oddiy tugma va ikonkali tugmalar oynada o'z aksini topgan.

II BOB. JAVADA GRAFIKA

2.1. Grafikani qo'llab quvvatlash

Javaning AWT paketi tarkibida grafikani qo'llab quvvatlovchi bir qator sinflar mavjud. Bunday sinflar *Swing* paketi yordamida hosil qilingan oynalarda turli grafiklar chizish imkonini beradi. Bunday oynalar applet oynasi yoki dastur ilovasi oynasi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Har bir oynaning koordinatasi quyidagicha bo'ladi: Oynaning yuqori chap burchagida (0;0) nuqta joylashadi. *X* o'qi shu nuqtadan boshlab oynaning yuqori o'ng burchagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. *Y* o'qi esa oynaning quyi chap burchagi tomon yo'naltiriladi. Oynaning o'lchami piksellarda aniqlanadi.

Bundan tashqari `java.awt` paketi interfeys oynasining ko'rinishini o'zgartirishga mo'ljallangan bir qator sinflarni o'zida saqlaydi. Bu paketni dasturga chaqirish uchun dasturning boshlang'ich qismida

```
import.java.awt.*;
```

satrini yozish kerak bo'ladi.

Oynada joylashtiriladigan har bir element yuqorida keltirilgan parametrlarga asoslanadi.

Grafik kontekstlar *Graphics* sinfida jamlangan. Ular quyida keltirilgan 2 ta usul yordamida olinadi:

1. Metod argumenti sifatida uzatish. Masalan *paint()* yoki *update()* metodlarning argumenti sifatida;
2. *Component* sinfidan *GetGraphics()* metodi yordamida olish.

Bulardan tashqari *Graphics* sinfida bir qator grafiklarni chizishga mo'ljallangan metodlar ham joylashgan. Ular yordamida chiziq, to'rtburchak, ellips kabi shakllarni oynada hosil qilish mumkin. Grafiklar chizishda ba'zi metodlar shakl chegarasini tasvirlashni amalga oshirsa, ayrimlari hosil qilingan shakllarning o'zi yoki ichini bo'yashni bajaradi.

Hosil qilingan grafiklar odatda qora rangda bo‘ladi. Agar chizilayotgan grafik obyekt mavjud oyna chegarasidan chiqib ketsa, u avtomatik ravishda to‘g‘rilanadi.

2.2. Grafik primitivlarni hosil qilish

Bu bo‘limda *Graphics* sinfining bir qator metodlari va ularning tavsifini keltiramiz.

Chiziq chizish. Ekranda chiziq chizish uchun *DrawLine()* metodidan foydalaniladi, uning umumiy ko‘rinishi quyida keltirilgan:

```
void DrawLine (int x1, int y1, int x2, int y2)
```

Bu metod *x1* va *y1* nuqtadan boshlanib, *x2* va *y2* nuqtada tugaydigan kesmani chizadi.

To‘g‘ri to‘rtburchak chizish. *drawRect()* va *fillRect()* metodlari mos ravishda to‘rtburchak va ichi bo‘yalgan to‘rtburchaklar chizishni bajaradi. Ularning umumiy ko‘rinishi quyida keltirilgan

```
void drawRect(int x1, int y1, int x2, int y2)
```

```
void fillRect(int x1, int y1, int x2, int y2)
```

To‘rtburchakning yuqori chap burchak *x1*, *y1* koordinatada joylashadi. Uning eni va balandligi *x2* va *y2* o‘zgaruvchilardagi berilgan qiymatlar bilan aniqlanadi.

Uchlari yoysimon bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizish uchun *RoundRect()* va *fillRoundRect()* metodlaridan foydalaniladi. Bu metodlarning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

```
void drawRoundRect (int x1, int y1, int x2, int y2, int dx, int dy)
```

```
void fillRoundRect (int x1, int y1, int x2, int y2, int dx, int dy)
```

Bu metodlar yordamida to‘g‘ri to‘rtburchaklarning uchlari yoysimon ko‘rinishga ega bo‘ladi. Uchlaridagi yoylarning *x* va *y* o‘qlari bo‘yicha diametrlari mos ravishda *dx* va *dy* o‘zgaruvchilarning qiymatlari bilan aniqlanadi.

Ellips va aylana chizish. *drawOval()* va *fillOval()* metodlari mos ravishda ichi bo‘yalmagan va bo‘yalgan ellips hamda aylanalar chizishni bajaradi. Ularning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

```
void drawOval (int x1, int y1, int x2, int y2)
```

void fillOval (int x1, int y1, int x2, int y2)

Ellips o'zini chegaralovchi (unga tashqi chizilgan) to'g'ri to'rtburchakli sohada chiziladi. Shuning uchun ham uning argumentidagi parametrlar quyidagicha: $(x1,y1)$ ellipsga tashqi chizilgan to'g'ri to'rtburchakning yuqori chap uchining koordinatasi, $(x2,y2)$ lar esa shu to'rtburchakning eni hamda balandligining (piksellarda) son qiymati. Aylana chizish uchun esa chegaralovchi to'g'ri to'rtburchakning eni va bo'yining qiymatlarini o'zaro teng ko'rinishda berish, ya'ni to'rtburchakni kvadrat shakliga keltirish kerak bo'ladi.

Yoy chizish. *drawArc()* va *fillArc()* metodlari yordamida aylana yoyini chizish mumkin. Ularning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

void drawArc(int x1, int y1, int x2, int y2, int boshlang'ich_burchak, int burilish_burchagi)

void fillArc(int x1, int y1, int x2, int y2, int boshlang'ich_burchak, int burilish_burchagi)

Aylana yoyi to'g'ri to'rtburchakli soha bilan chegaralanadi. Shuning uchun ham $(x1,y1)$ parametrlar chegaralovchi to'g'ri to'rtburchakning yuqori chap uchining koordinatasi, $x2$ va $y2$ lar esa chegaralovchi to'g'ri to'rtburchakning eni va balandligining (piksellardagi) o'lchami hisoblanadi.

Yoy <boshlang'ich_burchak> va <burilish_burchagi> ning qiymatlarga (burchaklar gradus o'lchovida ko'rsatiladi) asosan yuqorida ta'kidlangan to'g'ri to'rtburchakli sohada chiziladi. 0^0 soat strelkasining 3 ni ko'rsatib turgan holatiga mos ko'rinishda olinadi va burchak yoyining oshishi soat strelkasi yo'nalishiga teskari yo'nalishda bo'ladi. Agar burilish_burchagi qiymati manfiy bo'lsa burilish_burchagi soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha bo'ladi.

Masalan soat strelkasining 12 sonidan 6 sonigacha bo'lgan oraliqda soat strelkasi yo'nalishidagi yoyni chizish uchun <boshlang'ich_burchak> parametriga 90^0 ni , <burilish_burchagi>ga esa -180^0 ni qiymatlash kerak bo'ladi.

Ko'pburchak chizish. *drawPolygon()* va *fillPolygon()* metodlari yordamida ichi bo'yalmagan va bo'yalgan ko'p burchaklar chizish mumkin. Ularning umumiy ko'rinishi quyidagicha:


```
void drawPolygon(int x[], int y[], int)
```

```
void fillPolygon(int x[], int y[], int n)
```

Ko'pburchakning oxirgi uchining koordinatasi x va y massivlarining juftligi bilan aniqlanadi. x va y massivi bilan berilgan uchlarining koordinatasi nuqtalar sonini aniqlaydi.

Ko'pburchakni chizishning muqobil usuli *Polygon* sinfi turidagi obyektidan foydalanish hisoblanadi.

Quyida keltirilgan dasturda yuqorida ko'rib o'tilgan metodlardan foydalanib, turli shakllar chizish namoyish etilgan:

```
//Grafik primitivlarni chizish
import java.applet.Applet;
import java.awt.*;
import java.applet.*;
public class Grafik_primitivlar
            extends Applet {
    public void paint(Graphics g) {
        //Kesmalar chizish
        g.drawLine(0, 0, 100, 90);
        g.drawLine(0, 90, 100, 10);
        g.drawLine(40, 25, 250, 80);
        //To'g'ri to'rtburchaklar chizish
        g.drawRect(10, 150, 60, 50);
        g.fillRect(100, 150, 60, 50);
        g.drawRoundRect(190,150,60,50,15,15);
        g.fillRoundRect(280,150,60,50,30,40);
        //Ellips va aylanalarni chizish
        g.drawOval(10, 250, 50, 50);
```

```

        g.fillOval(90, 250, 75, 50);
        g.drawOval(190, 260, 100, 40);
        //Yoylar chizish
